



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY TARBIYA JARAYONINING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARINI BARTARAF ETISH CHORA TADBIRLARI

Hatamova Ma'rifat Yorqin qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy tarbiya jarayonining hozirgi holati va muammolari hamda ularni bartaraf etish chora tadbirlari amalga oshirilayotgan ishlar hamda respublikamiz va dunyoning rivojlangan davlatlari umumiy o'rta ta'lim muassasalari ma'naviy tarbiya tizimidagi muammolar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ma'naviy tarbiya, ma'naviy barkamollik, yosh avlod, odob-axloq, qadriyatlar, ta'lim-tarbiya, ijtimoiy faollik, ilm-fan.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОЦЕССА ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ И МЕРЫ ПО УСТРАНЕНИЮ ЕГО ПРОБЛЕМ

Хатамова Маърифат Ёркин кизи

Джизакский государственный педагогический университет, базовый докторант

Аннотация

В данной статье представлено текущее состояние и проблемы процесса духовного воспитания в общеобразовательных средних учебных заведениях, а также рекомендации по проводимой и необходимой работе по их устранению. Также рассматриваются проблемы системы духовного воспитания в общеобразовательных средних учебных заведениях нашей республики и развитых стран мира.

Ключевые слова: духовное воспитание, духовное совершенство, молодое поколение, нравственность, ценности, образование, общественная деятельность, наука.

THE CURRENT STATE OF THE PROCESS OF SPIRITUAL EDUCATION IN GENERAL SECONDARY EDUCATION INSTITUTIONS AND MEASURES TO ADDRESS ITS PROBLEMS

Hatamova Ma'rifat Yorqin qizi

Jizzakh State Pedagogical University, Basic Doctoral Student

Abstract

This article presents the current state and problems of the spiritual education process in general secondary educational institutions, as well as recommendations on the work being done and the work that needs to be done to eliminate them. It also discusses the problems in the system of spiritual education in general secondary educational institutions of our republic and developed countries of the world.

Keywords: spiritual education, spiritual perfection, young generation, morality, values, education, social activity, science.

Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari sharoitida muammoli toifaga kiruvchi yoshlar bilan ishlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, uyushgan jinoyatchilikning erta oldini

olish bo'yicha preventiv dasturlar amalga oshirilmoqda. Bugun nafaqat respublikamizda balki hatto rivojlanishi eng yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan davlatlarda ham aynan yoshlar bilan ishlash, ularning ma'naviy dunyosini kengaytirish shu bilan birga jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan muammo eng katta muammo doirasiga kiritilgan. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, tatbiq etilayotgan yangiliklar, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, xalqimizning yashash va mehnat qilish sharoitining yaxshilanishi, umuman olganda erishilgan moddiy va ma'naviy salohiyat erkinligi mamlakat mustaqilligining tuhfasi bo'lib, erkin mehnat qilish va yashash, mustaqil fikrlash, e'tiqod va so'z erkinligi, diniy bag'rikenglik, umuminsoniy qadriyatlar va milliy urf-odatlarining hurmat qilinishi va qadrlanishi, kuchli ijtimoiy himoya hamda ularni huquqiy asoslarining yaratilishi yoshlarni mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyatini ob'ektiv baholashga o'rgatish yo'nalishida o'ziga xos vazifalar yuklaydi. Bular o'z navbatida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda o'quvchilarni ko'proq erkin va mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularning sub'ektivligini oshirish, mustaqil ta'lim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, mustaqil olgan ma'lumotlarini o'rganish asosida ularning ilmiyligi, yangiligi va ishonchligini tahlil qilish, eng yangi va ishonchli axborotlar bilan ta'minlash, ularning faoliyatini muvofiqlashtirishda axborotlar almashinuviga alohida e'tibor qaratish zaruriyatini belgilaydi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan tarbiyaviy jarayonlarda yuqori samaradorlikka erishish uchun ta'lim-tarbiya jarayoni hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonida o'quvchilarda ilm olishga bo'lgan ijobiy motivlarni shakllantirish, o'quvchilar uchun zaruriy, qulay shart-sharoitlar yaratuvchi ijodiy muhitni vujudga keltirish, tarbiyaviy jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash asosida tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishga tizimli yondashuvning ahamiyatini va o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish kabi shartlarning bajarilishini ta'minlash zaruriyati hozirgi kundagi eng dolzarb masalalardan ekanligini ifodalaydi. Biz texnologik inqilob va tartibni shakllantirish davrida yashamoqdamiz. Kecha hayoliy tuyulgan narsa bugun oddiy va ommalashib bormoqda. Texnologiyalar dunyosining ajoyib imkoniyatlari, genetik va bioinjeneriyaning ajoyib imkoniyatlari, axborot texnologiyalari biz uchun ochilmoqda. Bularning barchasi insoniyat xizmatiga aylandi. Kvant mexanikasi qanday qilib bizning cho'ntagimizda uyali telefonlar, smartfonlar bilan har qanday uyga ulkan tekis ekranli zamonaviy televizorlar, kompyuterlar, noutbuklar, planshetlar, "aqlli" changyutgichlar va uy robotlari bilan kirib kelganini sezmadik.

Aloqa kosmosga ko'chib o'tdi va odamlar aloqa qilishlari uchun juda ko'p bulutli texnologiyalar ixtiro qilishdi. Ushbu davrda hatto avlodlar turlicha nomlana boshladi. Ma'lumki zamon shiddat bilan rivojlanar ekan, yangiliklar ham kundan kunga ortib bormoqda. Bugun rivojlangan davlatlarda ham yoshlar, ta'lim va tarbiya muammolari dolzarb muammolardan sanaladi. o'rganishlar natijasi shuni ko'rsatadiki eng rivojlangan davlatlardan biri bo'lgan AQShda ham yoshlarning ma'naviy muammolari yechimlari asosiy o'rganish va hal qilinishi lozim bo'lgan muammoga aylandi. Ularning ta'lim nazariyasi o'quvchining bo'sh vaqtini ijtimoiy pedagogik asosda tashkil qilishga qaratildi va bu ijtimoiy ma'naviy tarbiya yo'nalishining paydo bo'lishiga olib keldi. O'quvchining bo'sh vaqtlarida nima bilan shug'ullanishidan habardor bo'lmaslik, jamiyatning ma'naviy muhit nosog'lomligi, jinoyatchilik, narkomaniya va boshqa ijtimoiy muammolarni keltirib chiqazishiga borib taqaladi.

So'nggi yillardagi ma'lumotlar hatto rivojlanishi yuqori darajada bo'lgan AQSh davlatlaridagi asosiy muammolardan biri ekanligini isbotlaydi. Misol uchun: Los Anjelesning Lotin Amerikaliklar yashaydigan mahallasi hamda u yerdagi maktablar misolida ko'rishimiz mumkin. Garfeld maktabi o'quvchilari misolida ko'rish mumkin. Amerika maktablarida bezori xulq atvori yomon o'quvchilarni tarbiyalash hamisha dolzarb masala hisoblanadi. Beodoblik uchun o'qishdan vaqtincha chetlatish holatlari 2023 yilga qadar juda ko'p bo'lgan. Ammo

rivojlanayotgan AQSh da muammoni yechimisiz qoldirish masalasi yuqoriga ko'tarilgan. Sababi so'nggi to'rt yil ichida umumiy o'rta ta'lim maktabini yomon xulqi va sog'lom bo'lmagan muhit yaratilishi tufayli, hatto 40foiz o'quvchi ham bitirmayotgani statistik ma'lumotlardan ma'lum bo'lgan. Biroq bunday holatlar ushbu davlatning rivojlanishidagi eng katta to'siq sifatida qaraldi. Bunda asosiy sabab sifatida ta'lim tashkilotlari ohirgi to'rt yil ichida maktab darsliklaridan ma'naviy tarbiyaga yo'naltirilgan fan dasturlari hamda darsliklarining foydalanishdan chiqazib yuborilganligi, ma'anviy tarbiyaviy soatlarning qisqartirilishi oqibati deb ko'rsatgan. An'anaviy maktab tizimida ko'plab muammolar va kamchiliklar mavjud deb topilgan va ularni isloh qilish kerakligi taklifi kiritilgan. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish chora tadbirlari sifatida bir qator dasturlar ishlab chiqilgan. Mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha strategik programmalar tuzilgan va vazifalar amalga oshirilgan. AQShda ushbu muammolarga yechim sifatida an'anaviy ta'limdan voz kechgan holda, hamkorlik pedagogikasidan foydalanish, o'quvchilarga milliy o'zlikni qadriyatlarini anglash, mustaqil fikrlash va oila va vatanni qadrlashga o'rgatish maqsadida ma'naviy tarbiya o'qituvchilarni dars jarayonlariga jalb etish, fan darsliklariga tarbiyaga oid ma'lumotlarni ko'proq kiritish bilan muammoni bartaraf etish ko'zda tutilgan. AQSH ta'lim vazirliklari har bir shtat uchun standartlashtiruvchi va baholovchi tashkilotlar joriy etgan va ularda mustaqil o'quv tizimini tashkil qilish vakolati berilgan. AQSh ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya yagona konsepsiya bilan chegaralanmagan bo'lib, u asosan "Character Education", "Civic Education" va "Social and Emotional Learning (SEL)" konsepsiyalarining integratsiyasi asosida amalga oshiriladi. Yani individual axloq, qadriyatlar, fuqarolik ta'lim asosida amalga oshiriladi. O'quvchilardagi muammolarning kelib chiqish sababi o'rganilganida 80 foizdan yuqori o'quvchi bo'sh vaqtning to'g'ri tashkil etilmaganligi jinoyatlarning, axloqiy va ma'naviyatning buzilishiga olib kelishi mumkinligi haqida aytib o'tgan. Bu o'rganilgan masala yuzasidan AQSH ta'lim vazirligi tomonidan „K-12 dasturi“ ishlab chiqilgan. Ushbu dastur guruhlar bilan ishlash, ma'naviy dars soatlari, oilaviy qadriyatlar, ota onalar bilan ishlash, san'at va madaniyat, sport to'garaklari, texnologiya va motorika darslaridan tashkil topadi. Darslar jarayonida o'quvchilar A, B, C, D kabi kategoriyalarda baholanadilar va bu tizim qat'iyligi sababli barcha o'quvchilar unga qat'iy rioya qiladilar. Ma'naviy tarbiya yuzasidan o'tkazilgan testlar, tadbirlar yoki tashkiliy ishlarda kategoriyasi pastga tushgan o'quvchilar tegishli vazifalarga biriktiriladi.

Yaponiya umumta'lim maktablarida esa ushbu jarayonlar butunlay farq qiladi, o'quvchilarning tarbiyaviy faoliyatini nazoratga olish, eng avvalo bolaga tarbiya berish asosiy nazariya sifatida qaraladi. Umumiy ta'lim maktablari ota ona bilan doimiy hamkorlikda ish olib boradi, tarbiyadagi vazifalarni, bolaning ma'naviy dunyoqarashi, milliy g'urur, o'zaro hurmat, oila va jamiyat qadriyatlarini hurmat qilishga o'rgatish vazifasini ota onaning ma'suliyati sifatida belgilaydi. Ta'lim muassasasida shaxsni jamiyat bilan uyg'un holda rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit va uzluksiz tizim sifatida shakllangan.

Mazkur tizimda tarbiya ta'limdan ajralmas jarayon bo'lib, u nafaqat bilim berish, balki ijtimoiy mas'uliyat, intizom, mehnatsevarlik va axloqiy barqarorlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Yaponiya tajribasining muhim jihati shundaki, ma'naviy-axloqiy tarbiya alohida nazariy mashg'ulotlar bilangina cheklanmay, balki o'quvchilarning kundalik maktab hayoti, jamoaviy faoliyati va ijtimoiy munosabatlari orqali amaliy tarzda amalga oshiriladi. Yapon maktablari o'zining qat'iy qoidalari va o'quvchilarga yuqori intizom talab qilishi bilan mashhurdir.

Quyida yapon maktablarida amal qilinadigan asosiy qoidalar bilan tanishib chiqamiz.

O'rta sinf o'quvchilari orasida ishqiy-romantik munosabatlarga yo'l qo'yilmaydi.

O'quvchilardan faqat ta'limga e'tibor qaratish talab qilinadi.

Yapon maktablarida aynan o'quvchining ma'naviy tarbiyasini nazorat qilish bo'yicha maxsus dastur ishlab chiqilgan. Bunga ko'ra o'quvchilarning fan dasturi va darsligiga kiritilgan ta'lim tarbiya jarayonida Dotoku Kyouki ya'ni ma'naviy axloqiy tarbiya dasturi asosida "Axloq

darsi” (Dotoku) tashkil etiladi va o‘quvchilar ota onalar bilan birgalikda baholanadi.[4;94] Tarbiya jarayonida hurmat, hamjihatlik, mas’uliyat va vatanparvarlik kabi qadriyatlar ustuvor ahamiyat kasb etib, ular o‘quvchilarda ijtimoiy muvozanat va fuqarolik ongini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘qituvchi tarbiya subyekti sifatida axloqiy namuna vazifasini bajaradi, oila va jamiyat esa mazkur jarayonning faol hamkorlari hisoblanadi. Shuningdek, diniy neytrallik saqlangan holda, milliy madaniyat va an’analar asosida ma’naviy tarbiya singdiriladi. Yapon ta’lim tizimi va siyosati muammodani bartaraf qilish emas, balki uni yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik siyosati g‘oyasi asosida tizimni boshqaradi.

Tarbiya va ta’lim Yaponiyada oila, jamiyat va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan – “iloh” darajasiga ko‘tarilgan, chunki, mamlakatda qabul qilingan “umrbod yollanish” tamoyili insonga jamiyatda munosib joyni egallash uchun faqat bir marta imkoniyat beradi va yaxshi ta’lim olish shu imkoniyatni muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun kafolat yaratadi. Yapon maktablarining an’anaviy maqsadi ta’lim berishdan ko‘ra ko‘proq tarbiyalashga qaratilgan, zero, xalq orasida “olim bo‘lishdan ko‘ra yaxshi odam bo‘lish afzalroqdir”, degan ibora mavjud. Bu maqsad kichik maktab yoshidagi sinflarda o‘quv rejalariga kiritilgan maxsus fanlar orqali amalga oshiriladi. Insonning shaxs bo‘lib shakllanishi jarayoni, uning xalq an’anaviy madaniyatiga oshno bo‘lishi, kichik yoshdan boshlab qabul qilingan me’yorlarga o‘rgatilishi o‘zining ijobiy natijasini beradi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra aynan Yapon maktablarida ma’naviy tarbiya masalalari yuqori o‘rinda va muammolarni kamdan kam holatlarda uchratish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida o‘tkazilayotgan islohotlarning maqsadi mamlakat ta’lim tizimini yangi bosqichga ko‘tarish, yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishda xalqimizning boy va qadimiy me’rosi, pedagogik tajribasidan samarali foydalanish, shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rganib, eng foydali ta’lim uslub va metodlarini o‘zlashtirishdan iboratdir.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda o‘quvchilarni ko‘proq erkin va mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ularning sub’ektivligini oshirish, mustaqil ta’lim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, mustaqil olgan ma’lumotlarini o‘rganish asosida ularning ilmiyligi, yangiligi va ishonchligini tahlil qilish, eng yangi va ishonchli axborotlar bilan ta’minlash, ularning faoliyatini muvofiqlashtirishda axborotlar almashinuviga alohida e’tibor qaratish zaruriyatini belgilaydi.[2;35] Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan tarbiyaviy jarayonlarda yuqori samaradorlikka erishish uchun ta’lim-tarbiya jarayoni hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonida o‘quvchilarda ilm olishga bo‘lgan ijobiy motivlarni shakllantirish, o‘quvchilar uchun zaruriy, qulay shart-sharoitlar yaratuvchi ijodiy muhitni vujudga keltirish, tarbiyaviy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligini ta’minlash asosida tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishga tizimli yondashuvning ahamiyatini va o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish kabi shartlarning bajarilishini ta’minlash zaruriyati hozirgi kundagi eng dolzarb masalalardan ekanligini ifodalaydi. Tarbiyaviy munosabatlar inson shaxsini rivojlantirishga ma’lumot, mustaqil ta’lim olish va o‘zini-o‘zi tarbiyalashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Demak, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan tarbiyaviy munosabatlar va ma’naviy tarbiyani shakllantirish jarayonida o‘quvchilar o‘rtasidagi hamda o‘qituvchi bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jarayonida vujudga keluvchi bevosita ta’sir jarayonini inobatga olish zarur bo‘lib, bu bevosita ta’sir muloqot jarayonida yoki masofadan turib ham vujudga kelishi mumkinligi pedagogik jarayonlarda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki bugungi kunda respublikamiz ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya sohasidagi muammolar kontseptual va metodologik aniqlik, ayrim darsliklar mazmuni, ta’lim va tarbiya uzviyligi hamda jamiyat bilan hamkorlik kabi bir nechta yo‘nalishlarda namoyon bo‘lmoqda. Bu muammolar “ma’naviy tarbiya tushunchasining integratsiya darajasi”,

“pedagogik texnologiyalar yetishmasligi” va “maktab-oila-jamiat uzviyligining faol amalga oshirilmasligi” bilan bog‘liq. Ta’lim muassasalarida ma’naviy tarbiyaning tizimli va izchil metodologiyasi yetishmaydi. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarda uchrayotgan ma’naviy-tarbiyaviy muammolar bir nechta tizimli yo‘nalishda namoyon bo‘lmoqda. Shaxsiy motivatsiya va hayotiy maqsadlarning yo‘qligi, muammolar. O‘quvchilarda hayotiy maqsadning aniq shakllanmaganligi va faqat baho yoki majburiyat uchun o‘qish holatlari kuzatiladi. Bu muammo ma’naviy tarbiyaning motivatsion funksiyasi yetarlicha ishlamayotganini ko‘rsatadi. Axloqiy qadriyatlarning ichki ehtiyojga aylanmaganligi o‘quvchilar axloqiy me’yorlarni bilish bilan birga, uni kundalik hayotda mustahkam amalga oshirmaydi. Mas’uliyat, halollik va hurmat ko‘pincha tashqi nazorat orqali namoyon bo‘ladi, shaxsiy ichki motiv yetishmaydi. Axborot muhitining salbiy ta’siri ijtimoiy tarmoqlar, zo‘ravonlik va noto‘g‘ri ideal obrazlar o‘quvchilarning ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Tanqidiy fikrlash va axborot madaniyati yetarli darajada shakllanmagan. Oila–maktab tarbiyaviy uzviyligining zaifligi, ota-onaning tarbiyaga e’tibori pastligi va maktabning yakka chora sifatida tarbiyani olib borishi kuzatiladi. Bu o‘quvchilarda turlicha talab va mezonlar o‘rtasida chalkashlik hosil qiladi. Intizom va mas’uliyat muammolari darsga befarqlik, maktab qoidalariga rioya qilmaslik va jamoaviy mas’uliyat hissining pastligi mavjud. Tarbiya ko‘proq talab va jazoga asoslangan bo‘lib, ongli mas’uliyat yetarli shakllanmagan. Ijtimoiy-emotsional va muloqot madaniyati yetishmovchiligi oqibatida o‘quvchilarda empatiya va jamoaviy ishlash ko‘nikmalari sust. Konfliktlarni hal qilish va bir-birini tushunish qobiliyati past. Milliy o‘zlik va madaniy identifikatsiya bilan bog‘liq muammolar ba’zi o‘quvchilar milliy qadriyatlarga befarq, chet madaniyati ta’siriga tez moslashadi tarixiy xotira va madaniy merosni yetarli darajada o‘rganmasligi. Ushbu keltirib o‘tilgan muammolarning har biri bugun respublikamizda tez tez uchraydigan muammolar sifatida ko‘riladi. Yuqoridagi muammolarni hal etish orqali O‘zbekiston ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyaning samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Respublikamizdagi o‘quvchilarida uchrayotgan ma’naviy-tarbiyaviy muammolar shaxsiy motivatsiya, axloqiy qadriyatlarning ichki singdirilishi, axborot muhitining salbiy ta’siri, maktab-oila jamiat uzviyligining yetishmasligi, intizom va muloqot ko‘nikmalarining pastligi hamda milliy o‘zlikni anglashi bilan bog‘liq tizimli muammolar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu muammolarni hal etish uchun ma’naviy tarbiyani shaxsga yo‘naltirilgan, uzluksiz va kompetensiyaviy yondashuvlar orqali tashkil etish zarur ekanligini ta’kidlash joiz.

Ushbu pedagogik faoliyat va yo‘nalishlar zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonining rivojlanishiga ilmiy-nazariy asos bo‘lib, yosh avlodni ma’naviy jihatdan barkamol shaxs sifatida shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, farzandlarimizning ma’naviy tarbiyasi yo‘lida mavjud bo‘lgan bor texnologiya va usullardan foydalanish, mahoratni ishga solish, izlanishdan to‘xtamaslik, iste’dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o‘rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham davlat va jamiyatning bosh maqsadi bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son qarori.
2. Sh.Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. 4-jild. Toshkent O‘zbekiston. 2020. [35-bet]
3. <https://www.amerikaovozi.com/a/school-suspensions-/1907107.html>
4. Michiru Watanabe, A New Possibility of Moral Education and Moral Teaching in School, Studies in the Philosophy of Education, 2015, Volume 112, Page-94, Released on J-STAGE September 24, 2025